

ZAMON SHAKLLARINING SEMANTIK QIYOSI

Abralova Nafisa

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: dots., Feruza Jumayeva

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek va ingliz tilidagi zamon shakllarining ma'no farqlanishlari qiyosan o'rganilgan.*

Tayanch so'zlar: *zamon shakllari, aspect, past, present, future, simple, continuous, perfect, yaqin o'tgan zamon fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davomli fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li, hozirgi zamon, oddiy kelasi zamon, kelasi zamon maqsad fe'li, kelasi zamon gumon fe'li*

O'zbek tilida uchta zamon shakli mavjud: o'tgan, hozirgi va kelasi zamon. Ingliz tilida ham umumiy uchta zamon bor (past, present, future) va ularning har biri o'z navbatida to'rttadan aspekt (simple, continuous, perfect, perfect continuous)ga bo'linadi.

1. O'tgan zamon shakllari. O'tgan zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin sodir bo'lganini bildiradi va o'zbek tilida ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

a) Yaqin o'tgan zamon fe'li (present perfect tense) yaqinda tugallangan, so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan harakat va holatni bildiradi va o'zbek tilida –di qo'shimchasi bilan yasaladi. Shaxs-son qo'shimchalari –di qo'shimchasidan so'ng qo'shiladi. M., Kun bo'yi yomg'ir yog'di. Ingliz tilidagi ifodasi: It has rained all day.

b) Uzoq o'tgan zamon fe'li (past perfect tense). O'zbek tilida –gan qo'shimchasi bilan yasaladi, harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi. M., Bu kitobni ikki marta o'qiganman: I had (already) read this book twice.

d) O'tgan zamon hikoya fe'li (past simple). Odatda, o'tgan zamonda bajarilgan hikoya mazmunidagi gaplarda ishtirok etadi va –b, -ib qo'shimchalari bilan yasaladi. –ibdi, -ibman, -ibsan shakllari esa nutq jarayonidan oldin ro'y bergan holatni boshqa bir shaxsdan eshitganligi yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. M., Kecha Samarqandda yomg'ir yog'ibdi: It rained in Samarkand yesterday.

Yuqoridagi uch zamonning ma'nosini solishtiramiz: 1. Men uyga vazifamni bajardim. 2. Men uyga vazifamni bajarganman. 3. U uyga vazifasini bajaribdi.

Birinchi gapda yaqinda tugallangan va natijasi ko'rinib turgan ish-harakat berilgan, shuning uchun ingliz tiliga tarjima qilishda hozirgi tugallangan zamondan foydalanamiz: I have done my homework. Ikkinchi gap uzoq o'tgan zamonda bo'lganligi uchun quyidagicha tarjima qilinadi: I had (already) done my homework. Uchinchi gap oddiy o'tgan zamonda tarjima qilinadi: She did her homework (yesterday)

e) O'tgan zamon davom fe'li (past continuous). O'tgan zamonda davom etib turgan harakat-holat ma'nosini bildiradi, ya'ni o'tgan zamonda muayyan vaqt oralig'ida bir necha marta bajarilgan yoki davom etib turgan harakatholatlarni ifodalaydi. O'tgan zamon davom fe'li -r, -ar, -moqda, -yotgan, -ayotgan qo'shimchalari bilan yasaladi va bu qo'shimchalardan keyin to'liqsiz fe'l va shaxs-son qo'shimchalari keladi: borar edik, bormoqda edi, borayotgan edim. M., Siz uxlayotgan vaqtingizda men choy ichayotgan edim (I was drinking tea when you were sleeping).

f) O'tgan zamon maqsad fe'li (was/were going to). Bunday fe'llar o'tgan zamonda bajarilishi maqsad qilingan harakat-holatni bildiradi. O'tgan zamon maqsad fe'li -moqchi, -adigan, -ydigan qo'shimchilarini fe'l asosiga qo'shish orqali yasaladi va bu qo'shimchalardan so'ng to'liqsiz fe'l va shaxs-son qo'shimchalari keladi: o'qimoqchi edim, o'qiydigan edim. M., Aslida u bor haqiqatni kecha aytmoqchi edi (In fact, he was going to tell the truth yesterday).

Bundan tashqari, o'tgan zamonda odatlangan, hozirda bajarilmayotgan ish-harakatlar uchun "used to" shaklidan foydalanamiz. M., Men oldinlari ko'p tennis o'ynardim, hozir esa juda dangasaman: I used to play tennis a lot, but now I'm too lazy.

2. Hozirgi zamon shakllari. Hozirgi zamon shakllari o'zbek tilida fe'l asoslariga -yap, -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib qo'shimchalari qo'shish orqali hosil qilinadi. Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytiliyotgan paytda yuz berishini ifodalaydi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon shakllaridan so'ng qo'shiladi. Hozirgi zamon fe'llari quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) So'zlovchi so'zlab turgan vaqtda bajarilyotgan harakat-holat ma'nosini bildiradi. M., Men (hozir) o'qiyapman (I am reading now).

b) So'zlovchi so'zlab turgan davrda bajarilyotgan ish-harakatni ifodalaydi. M., Men o'qiyapman. Ushbu gapda hozirda, shu yillarda, shu kunlarda, uch yildan beri kabi payt bildiruvchi so'zlarni qo'shib o'qish mumkin bo'ladi. (I am reading these days)

3. Kelasi zamon shakllari. Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytiliyotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi. O'zbek tilida kelasi zamon fe'llari asosga -a, -y, -(a)r, -ur, -ajak, -moqchi kabi qo'shimchalarni

qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan, boraman, borajakman, borgayman, borgayman, borurmiz, aytmoqchiman, borarsan. Bo'lishsiz fe'l shakllariga esa –s qo'shimchasi qo'shiladi: bormas emish. Kelasi zamon shaklidagi fe'llar quyidagi ma'no turlariga bo'linadi:

a) Oddiy kelasi zamon fe'llari (Present simple). Bunday fe'llar kelasida bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakat-holat ma'nosini bildiradi: boradi, o'qiydi. Shu kabi fe'llar odatda, ba'zan, ba'zida, har doim, doim kabi so'zlar bilan birga kelib davomli harakat ma'nosini ifodalaydi. Oddiy kelasi zamon shakli fe'l asosiga –a, -y qo'shimchalari qo'shiladi va bu qo'shimchalar, odatda, aniq bir zamoni emas, balki umumiy zamoni, odatiylikni bildirish uchun qo'llanadi. Oddiy kelasi zamon eskirgan, tilimizda kam qo'llanadigan –jak, -ajak, -gay, -ur, -gusi, -g'usi qo'shimchalarini qo'shish orqali ham yasaladi, shaxs-son qo'shimchalari keyin keladi. M., Men universitetga ba'zida piyoda boraman. Bu kabi gaplarni ingliz tiliga aynan tarjima qilishda kelasi zamondan emas, hozirgi oddiy zamon (present simple)dan foydalanamiz: I walk to the university everyday.

b) Kelasi zamon maqsad fe'llari(Present continuous). Bunday fe'llar kelasi zamonda bajarilishi yoki bajarilmasligi maqsad qilingan harakat-holat ma'nosini bildiradi. Kelasi zamon maqsad fe'llari fe'l asosiga –moqchi, -adigan, -ydigan qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. M., Men kelasi hafta Nyu-Yorkga uchib ketmoqchiman. Bu kabi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiliish uchun hozirgi davomli zamon (present continuos)dan foydalanamiz: I am flying to Nyu-York next week.

d) Kelasi zamon gumon fe'llari. Kelasi zamon gumon fe'llari bajarilishi yoki bajarilmasligi noaniq bo'lgan harakat-holat ma'nosini bildiradi. –(a)r, -ma(s) shakllari kelasi zamon gumon, taxmin yo'li bilan ifodalaydi. M., Eshitishimcha, ertaga yomg'ir yog'ar emish (I heard that, it will rain tomorrow).

Ma'lumki, o'zbek tilida fe'l zamon shakllari benihoya rang-barang bo'lib, ular nutqda ifodalagan harakat yoki holatning vaziyati, ifoda maqsadi, umuman, uslub taqozosiga muvofiq zamon shakllari almashinishi, muayyan bir zamoni ifodalovchi qo'shimchalardagi o'ziga xosliklarga ko'ra ulardan biri tanlanishi mumkin.

M., Xo'sh, anavi pulni nima qildik? M., Bu yerda bo'lgan bahslar shu eshikdan chiqmasin, ma'qulmi, nima dedingiz? Bu misollarda -di qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlashuv uslubiga ko'ra kelasi zamon ma'nosida qo'llangan. Bu gaplarni ingliz tiliga tarjima qilishda oddiy kelasi zamon yoki hozirgi zamondan foydalanamiz: So, what will we do that money?/So, what are we doing that money? kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Qaqnus Media. 2019. -136 b.
2. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Ma'ruza matnlari) – T.: “Qamar-media” nashriyoti, 2020. – 324 b.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3- жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.
4. English-Uzbek dictionary. Brain Patrick Tyers va Nigora Bozorova tahriri ostida. Qayta nashr. Yangi asr avlodi. Toshkent,2018.